IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

AGROKLASTERLARDA MEHNAT SHAROITLARINI YAXSHILASH BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Yahyo Turdibekov
MMTX mutaxasisligi magistiri.
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20160623

Annotatsiya: Mazkur maqolada agroklasterlarda mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi zararli va xavfli omillarni kamaytirish hamda xodimlar uchun xavfsiz mehnat muhitini shakllantirish masalalari bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari asosida mehnat muhofazasi tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan hamda mavjud muammolar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: agroklaster, mehnat muhofazasi, xavf omillari, ergonomika, vibratsiya, xavfsizlik, ishlab chiqarish muhiti

Annotation: This article analyzes scientific literature on improving working conditions in agroclusters, reducing harmful and hazardous factors in production, and creating a safe working environment for employees. Based on the research of foreign and local scientists, the main directions for improving the labor protection system are highlighted, and existing problems are identified.

Keywords: agrocluster, labor protection, risk factors, ergonomics, vibration, safety, work environment

Аннотация: В данной статье проанализирована научная литература по вопросам улучшения условий труда в агрокластерах, снижения вредных и опасных факторов производства, а также формирования безопасной рабочей среды для сотрудников. На основе исследований зарубежных и отечественных ученых освещены основные направления совершенствования системы охраны труда и выявлены существующие проблемы.

Ключевые слова: агрокластер, охрана труда, факторы риска, эргономика, вибрация, безопасность, производственная среда

Kirish

Hozirgi kunda agroklaster tizimining rivojlanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga mehnat sharoitlariga qo‘yiladigan talablarni ham kuchaytirmoqda. Zamonaviy texnika va texnologiyalarning keng qo‘llanilishi mehnat xavfsizligini ta’minlash zaruratini yanada oshirmoqda [1].

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy manbalarda qishloq xo‘jaligida mehnat xavfsizligini ta’minlash masalalari keng yoritilgan. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqarishdagi xavf omillarini aniqlash va ularni boshqarish tizimini takomillashtirish zarurligi ta’kidlanadi [2]. Ularning fikricha, mehnat sharoitlarini monitoring qilish va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish xavfsizlik darajasini oshiradi. Ishlab chiqarish muhitidagi zararli omillar shovqin, vibratsiya, chang va gazlar inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan [3]. Ushbu omillarni me’yor darajasiga keltirish orqali kasb kasalliklari va ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlarni kamaytirish mumkin.

Qishloq xo‘jaligi texnikalaridan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan xavflar ham alohida o‘rganilgan. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, texnika bilan ishlashda xavfsizlik talablariga rioya qilish va texnik xizmatni to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega [4]. Mehnat sharoitlarini kompleks baholash va profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligi ham ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan [5]. Bu yondashuv ishlab chiqarishdagi xavflarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda qishloq xo‘jaligida mehnat muhofazasi tizimini takomillashtirish, baxtsiz hodisalarni kamaytirish va xodimlar salomatligini muhofaza qilish masalalari yoritilgan [1].

Shuningdek, texnika operatorlarining mehnat sharoitlari ham alohida e’tiborga olingan. Vibratsiya ta’siri inson organizmiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, charchoqni oshiradi va ish unumdorligini pasaytiradi [6]. Ergonomik jihatdan noto‘g‘ri tashkil etilgan ish joylari esa mushak-skelet tizimi kasalliklariga olib kelishi mumkin [7]. Operatorlarning ko‘rish sharoitlari ham ishlab chiqarish xavfsizligiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Chang va yorug‘lik sharoitlarining o‘zgarishi ko‘rish qobiliyatini pasaytiradi [8]. Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali mehnat samaradorligini oshirish mumkinligi ham ilmiy asoslangan [9]. Mahalliy tadqiqotlarda esa chorvachilik va qishloq xo‘jaligi sohalarida baxtsiz hodisalar darajasi yuqoriligi qayd etilib, bu asosan xavfsizlik qoidalariga rioya qilinmasligi bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan [10].

Xulosa

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, agroklasterlarda mehnat sharoitlarini yaxshilash ko‘p omilli va murakkab jarayon bo‘lib, kompleks yondashuvni talab etadi. Xorijiy tajribada xavf-xatarlarni baholash, ergonomik talablarni hisobga olish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim o‘rin tutsa, mahalliy tadqiqotlarda mavsumiy xodimlar muammosi va ochiq maydon ishlarining o‘ziga xos xususiyatlari yetarli darajada yoritilmagan. Shuning uchun agroklasterlarda mehnat muhofazasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha chuqurroq ilmiy tadqiqotlar va amaliy choralar ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haydarov T., Xojiyev A., Mirkhasilova Z. va boshqalar. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi asoslari. Toshkent, 2019.
2. Guo X., Qi Tang, Liao Y. Agricultural safety management systems. 2020.
3. Sergeenko Y.S., Galkina O.V., Zametina T.V. Industrial hygiene and safety. 2018.
4. Kombarova E.V., Petrov D.E., Kostrov A. Agricultural machinery safety. 2019.
5. Stuzhenko N., Babenko L., Eroshenko A. Risk assessment in agriculture. 2021.
6. Weis M., von Holst C. Whole-body vibration in tractors. 2019.
7. Frohriep S., Bühlmeyer K., Wittmann H. Ergonomics in agricultural machinery. 2020.
8. Bombosch F. Visual conditions in agricultural work. 2018.
9. Mederle M. va boshqalar. Agricultural logistics and efficiency. 2021.
10. Haydarov T., Rajabov N. Qishloq xo‘jaligida mehnat xavfsizligi. 2020.